XALQ DEPUTATLARI JIZZAX VILOYATII KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-23-351-3-0-K/25 Jizzax viloyati

Jizzax viloyati boʻyicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan va moʻljallanmagan yer soliqlari, mol-mulk solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hamda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning (sement ishlab chiqarishga moʻljallangan ohaktoshdan tashqari noruda qurilish materiallari boʻyicha) belgilangan bazaviy soliq stavkalari va koeffitsiyentlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qoʻllash shuningdek, mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara toʻlovining eng kam miqdorlariga oʻzgartirish kiritish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 412, 420, 422, 429, 437 va 452-moddalari, viloyat soliq boshqarmasining 2025-yil 18 noyabrdagi 27-71230-sonli xati hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi qonunining 6 va 25-moddalariga asosan Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga asosan Jizzax viloyatida yuridik shaxslarning qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlari bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq miqdori 42,4 mln.soʻm hamda jismoniy shaxslarga 1 kv.metr uchun bazaviy soliq stavkasining mutlaq miqdori 377,0 soʻm, yuridik shaxslar uchun mol-mulk solig‘ini hisoblashda viloyatning tumanlarida koʻchmas mulklarga 1 kv. metr uchun 1,39 mln. soʻm minimal miqdor belgilanganligi.

2. Soliq kodeksining 422-moddasiga muvofiq jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalariga hududlarning va faoliyat amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlarini hisobga olgan xalq deputatlari viloyat Kengashi o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan oraliqdagi kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar belgilashga haqliligi.

3. 2025-yildan boshlab xalq deputatlari viloyat Kengashi suv solig‘i stavkasiga 0,7 dan 1,5 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash vakolati berilgani.

4. Soliq kodeksining 452-moddasiga o‘zgartirish kiritilgan holda xalq deputatlari viloyat Kengashi noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat’iy belgilangan stavkalarga 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilashga haqliligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda viloyat soliq boshqarmasining hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining kelgusi yil uchun belgilangan mahalliy byudjet prognozidan kelib chiqib, tumanlar va shaharlar bo‘yicha 2026-yilda yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan va mo‘ljallanmagan yer soliqlari, mol-mulk solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hamda yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliqning (sement ishlab chiqarishga mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari noruda qurilish materiallari bo‘yicha) belgilangan bazaviy soliq stavkalari va koeffitsiyentlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash shuningdek, mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam miqdorlari bo‘yicha bergan takliflari inobatga olinsin.

6. Jizzax viloyatida 2026-yil uchun mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

- yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalariga nisbatan qo‘llanilgan koeffitsiyentlar 1-ilovaga muvofiq;
- yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlari bo‘yicha tuman va shaharlar kesimida yer solig‘i stavkalariga nisbatan qo‘llanilgan koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq;
- yuridik shaxslarning egaligidagi obyektlar va jismoniy shaxslarning egaligidagi noturar obyektlar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutlaq miqdorlarga nisbatan qo‘llanilgan koeffitsiyentlar 3-ilovaga muvofiq;
- jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga muvofiq;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,5 gacha qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 5-ilovaga muvofiq;
- noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori
6-ilovaga muvofiq;
- mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Shahar va tumanlar xalq deputatlari Kengashlarining mahalliy byudjet prognozlarini inobatga olib, 1-ilovaga asosan qo‘llaniladigan koeffitsiyentlarga nisbatan tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7

dan 3,0 gacha miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash vakolati inobatga olinsin.

8. Xalq deputatlari tumanlar va shahar Kengashlari tegishli hududda joylashgan daha, mavze, mahalla, koʻcha kesimida yuridik va jismoniy shaxslar uchun 2026-yilda belgilangan yer soliq stavkalarini hududlardagi soliq organlariga taqdim etilishini taʼminlasin.

9. Viloyat soliq boshqarmasi hamda hududiy soliq organlari 2026-yil uchun yuridik shaxslarning (yirik soliq toʻlovchilardan tashqari) mol-mulkiga solinadigan soliqni ushbu qaror bilan, qishloq xoʻjaligida moʻljallangan hamda moʻljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻining, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning (sement ishlab chiqarishga moʻljallangan ohaktoshdan tashqari noruda qurilish materiallari boʻyicha) va mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara toʻlovining eng kam stavkalarini xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlanadigan stavkalar asosida hisoblanishi va belgilangan tartibda undirilishini taʼminlasin.

10. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (A.Binokulov), Davlat soliq boshqarmasi (B.Ismailov) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda "Jizzax haqiqati" va "Джизакская правда" gazetalarida rasmiy e'lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

11. Qaror 2026-yil 1-yanvaridan boshlab kuchga kiradi.

12. Mazkur qaror ijrosini oʻz vaqtida ta'minlash vazifasi viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari Z.Azimov zimmasiga yuklansin.

13. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining barcha doimiy komissiyalar zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi raisi

SHUKUROV PARDA XXX

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-351-3-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha shahar va tumanlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari. 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha. 1 kv.m uchun	
		Koeffitsiyent (0.5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i 2026-yil uchun stavkasi (so‘mda)	Koeffitsiyent (0.5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i 2026-yil uchun stavkasi (so‘mda)
1	Arnasoy tumani	1.21	51 304 000.00	1.09	410.9
2	Baxmal tumani	1.23	52 152 000.00	1.02	384.5
3	G‘allaorol tumani	1.37	58 088 000.00	1.01	380.8
4	Sh.Rashidov tumani	1.65	69 960 000.00	1.17	441.1
5	Do‘stlik tumani	1.25	53 000 000.00	1.30	490.1
6	Zarbdor tumani	1.25	53 000 000.00	1.05	395.9
7	Zomin tumani	1.26	53 424 000.00	0.91	343.1
8	Zafarobod tumani	1.20	50 880 000.00	1.10	414.7
9	Mirzacho‘l tumani	1.20	50 880 000.00	1.02	384.5
10	Paxtakor tumani	1.37	58 088 000.00	1.12	422.2
11	Forish tumani	1.20	50 880 000.00	1.05	395.9
12	Jizzax shahar	1.80	76 320 000.00	1.90	716.3

13	Yangiobod tumani	1.19	50 456 000.00	0.95	358.2

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-351-3-0-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha shahar va tumanlar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Soliq kodeksi bo‘yicha bazaviy soliq stavkasi *(1 ga uchun)*	Kengash tomonidan qo‘llanilgan koeffitsiyent	2026-yil uchun belgilangan soliq stavkasi *(1 ga uchun)*
1	Arnasoy tumani	0.95	1.05	1.00
2	Baxmal tumani	0.95	1.08	1.03
3	G‘allaorol tumani	0.95	1.10	1.05
4	Sh.Rashidov tumani	0.95	1.10	1.05
5	Do‘stlik tumani	0.95	1.10	1.05
6	Zarbdor tumani	0.95	1.10	1.05
7	Zomin tumani	0.95	1.10	1.05
8	Zafarobod tumani	0.95	1.10	1.05
9	Mirzacho‘l tumani	0.95	1.10	1.05
10	Paxtakor tumani	0.95	1.10	1.05
11	Forish tumani	0.95	1.10	1.05
12	Jizzax shahar	0.95	1.12	1.06
13	Yangiobod tumani	0.95	1.08	1.03

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-351-3-0-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Yuridik va jismoniy (noturar) shaxslarning mol-mulk soliqlari uchun belgilangan minimal qiymatga nisbatan shahar va tumanlar kesimida belgilangan koeffitsiyentlar

T/r	**Shahar va tumanlar nomi**	**Soliq kodeksi bo‘yicha belgilangan mutloq miqdor** (so‘mda)	**Kengash tomonidan qo‘llanilgan koeffitsiyent**	**2026-yil uchun belgilangan mutloq miqdor** (so‘mda)
1	Arnasoy tumani	1 390 000.0	1.00	1 390 000.0
2	Baxmal tumani	1 390 000.0	1.00	1 390 000.0
3	G‘allaorol tumani	1 390 000.0	1.00	1 390 000.0
4	Sh.Rashidov tumani	1 390 000.0	1.00	1 390 000.0
5	Do‘stlik tumani	1 390 000.0	1.00	1 390 000.0
6	Zarbdor tumani	1 390 000.0	1.00	1 390 000.0
7	Zomin tumani	1 390 000.0	1.00	1 390 000.0
8	Zafarobod tumani	1 390 000.0	0.90	1 251 000.0
9	Mirzacho‘l tumani	1 390 000.0	0.90	1 251 000.0
10	Paxtakor tumani	1 390 000.0	1.00	1 390 000.0
11	Forish tumani	1 390 000.0	0.80	1 112 000.0
12	Jizzax shahar	2 350 000.0	1.00	2 350 000.0

13	Yangiobod tumani	1 390 000.0	0.93	1 292 700.0

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-351-3-0-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari bo‘yicha shahar va tumanlar kesimida 2026-yil uchun belgilangan koeffitsiyentlari

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Koeffitsiyent*				
		Uy-joylar va kvartiralar. dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo‘lganlarini qo‘shib hisoblaganda). ko‘p kvartirali uylarga uzviy bog‘liq bo‘lgan avtomashina turar joylari. shuningdek boshqa imoratlar. binolar va inshootlar	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo‘lgan	500 kv.m dan ortiq bo‘lgan	Boshqa aholi punktlarida joylashgan. umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo‘lgan uy-joylar va kvartiralar. dala hovli imoratlari	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob’ektlari. shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo‘ljallangan. yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari
1	Arnasoy tumani	1.00	1.00	1.00	1.00	1.00
2	Baxmal tumani	1.00	1.00	1.00	1.00	1.00
3	G‘allaorol tumani	1.00	1.00	1.00	1.00	1.00
4	Sh.Rashidov tumani	1.00	1.00	1.00	1.00	1.00
5	Do‘stlik tumani	1.00	1.00	1.00	1.00	1.00
6	Zarbdor tumani	1.00	1.00	1.00	1.00	1.00
7	Zomin tumani	1.00	1.00	1.00	1.00	1.00
8	Zafarobod tumani	1.00	1.00	1.00	1.00	1.00
9	Mirzacho‘l tumani	1.00	1.00	1.00	1.00	1.00
10	Paxtakor tumani	1.00	1.00	1.00	1.00	1.00

11	Forish tumani	1.00	1.00	1.00	1.00	1.00
12	Jizzax shahar	1.00	1.00	1.00	1.00	1.00
13	Yangiobod tumani	1.00	1.00	1.00	1.00	1.00

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-351-3-0-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq ho‘jaligi. elektr stansiyalari. kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar. shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish. (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Arnasoy tumani	1.05	1.05	1.05	1.05	1.05	1.05	1.05	1.05
2	Baxmal tumani	1.10	1.10	1.10	1.10	1.10	1.10	1.10	1.10
3	G‘allaorol tumani	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20
4	Sh.Rashidov tumani	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20
5	Do‘stlik tumani	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15
6	Zarbdor tumani	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15
7	Zomin tumani	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15
8	Zafarobod tumani	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15
9	Mirzacho‘l tumani	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15

10	Paxtakor tumani	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20	1.20
11	Forish tumani	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15	1.15
12	Jizzax shahar	1.30	1.30	1.30	1.30	1.30	1.30	1.30	1.30
13	Yangiobod tumani	1.10	1.10	1.10	1.10	1.10	1.10	1.10	1.10

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-351-3-0-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsiyentlar*

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Arralanadigan xarsang-tosh. xarsangtosh. ohak-tosh-chig'anoq. ohak-tosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohak-toshdan tashqari)*. dolomitlar. qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar. bazalt. granodi-oritlar. granosienitlar. sienitlar. porfiritlar. diabaz-porfiritlar. gab-bro. slanes jinslari. kar-bonat xom ashyosi. travertin	Tabiiy bezak-toshdan bloklar	Mar-mar	Granit-lar	Gips toshi. gips va angid-rid. ganch	G'isht-cherepitsa xom ashyosi. lyosslar va lyos-simon jinslar	Qum-shag'al aralash-masi. qurilish qumi. Qumtosh-lar)
1	Arnasoy tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25
2	Baxmal tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25
3	G'allaorol tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25
4	Sh.Rashidov tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25
5	Do'stlik tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25
6	Zarbdor tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25
7	Zomin tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25
8	Zafarobod tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25
9	Mirzacho'l tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25

10	Paxtakor tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25
11	Forish tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25
12	Jizzax shahar	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25
13	Yangiobod tumani	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25	1.25

Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-351-3-0-K/25 -son qaroriga
7-ilova

2026-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

№	Shahar va tumanlar nomi	**Ijara to‘lovining minimal stavkalari** (so‘mda)					
		Turar joylar uchun *(2026-yil uchun)*			Noturar joylar uchun *(2026-yil uchun)*		
		bazaviy minimal qiymat	koeffitsiyent	belgilangan minimal qiymat	bazaviy minimal qiymat	koeffitsiyent	belgilangan minimal qiymat
1	Arnasoy tumani	5 900.0	1.10	**6 490.00**	11 800.0	1.15	**13 570.00**
2	Baxmal tumani	5 900.0	1.25	**7 375.00**	11 800.0	1.25	**14 750.00**
3	G‘allaorol tumani	5 900.0	1.35	**7 965.00**	11 800.0	1.35	**15 930.00**
4	Sh.Rashidov tumani	5 900.0	1.45	**8 555.00**	11 800.0	1.45	**17 110.00**
5	Do‘stlik tumani	5 900.0	1.25	**7 375.00**	11 800.0	1.25	**14 750.00**
6	Zarbdor tumani	5 900.0	1.25	**7 375.00**	11 800.0	1.25	**14 750.00**
7	Zomin tumani	5 900.0	1.35	**7 965.00**	11 800.0	1.35	**15 930.00**
8	Zafarobod tumani	5 900.0	1.15	**6 785.00**	11 800.0	1.25	**14 750.00**
9	Mirzacho‘l tumani	5 900.0	1.15	**6 785.00**	11 800.0	1.25	**14 750.00**
10	Paxtakor tumani	5 900.0	1.35	**7 965.00**	11 800.0	1.35	**15 930.00**
11	Forish tumani	5 900.0	1.15	**6 785.00**	11 800.0	1.25	**14 750.00**

12	Jizzax shahar	14 500.0	1.65	**23 925.00**	28 400.0	1.65	**46 860.00**
13	Yangiobod tumani	5 900.0	1.10	**6 490.00**	11 800.0	1.15	**13 570.00**